

20-May, 2025-yil

**TRASOLOGIK EKSPERTIZALAR O’TKAZISHDA PLOMBALARNING
IDENTIFIKATSIYA QILISH IMKONIYATLARI**

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

o`qituvchisi (PHD), dotsent

Zulfuqarov Abduvaxob Abdumalik o`g`li

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 328-guruh kursanti

Qo`chqoraliyev Asilddin Ahmadalii o`g`li

Annotatsiya: *Mazkur maqolada trasologik ekspertiza doirasida plombalarni identifikatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Plombalarning muhim trasologik dalil sifatida o`rni, ularning sirtida qoladigan izlar orqali aniqlash va solishtirish imkoniyatlari, shuningdek zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida olib borilayotgan tahlillar ko`rib chiqilgan.*

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические основы проведения трасологической экспертизы. Рассматривается роль печатей как важных трасологических доказательств, возможности их идентификации и сопоставления по следам, оставленным на их поверхности, а также анализ, проведенный с использованием современных цифровых технологий.

Shuningdek, plombalarni ekspertiza qilishda uchraydigan cheklovlar va aniqlikni oshirish usullari tahlil qilingan. Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida izlar asosida ob`ektlarni aniqlash, ularning o`zaro aloqadorligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.[1] Shu nuqtai nazardan trasologik ekspertiza ayniqsa dolzarb bo`lib, u har xil sirtlardagi izlarni tahlil qilib, dalillarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Plombalar bu jarayonda alohida o`ringa ega bo`lib, ular orqali muhrlangan ob`ektning yaxlitligi, muhrlovchi shaxs yoki tashkilot, hatto vaqt bo`yicha ham ma'lumot olish mumkin.

Shulardan biri — plombalar — jinoyat joyidagi muhim trasologik dalil sifatida ko`riladi. Ular asosan muhrlangan joy, idish, jihoz yoki transport vositasining buzilmaganligini tasdiqlash uchun qo`llaniladi. Plombalardagi muhr izlari orqali ularni muhrlagan shaxs yoki tashkilot, muhrlangan vaqt va holati haqida ma'lumot olish mumkin.[2]

Huquqbazarliklarni tergov qilishda trasologik ekspertiza muhim o`rin tutadi. Bu ekspertiza turi iz qoldirish qonuniyatlarini o`rganib, har xil izlar orqali jinoyat sodir etilgan joyni aniqlash, jinoyat quollarini yoki ob`ektlarini identifikatsiya qilish imkonini beradi. Jumladan, plombalar — bu muhim trasologik dalillardan biri bo`lib, ular orqali turli muhrlangan idishlar, joylar yoki uskunalarning daxlsizligi tekshiriladi. Mazkur maqolada plombalarni trasologik ekspertiza orqali identifikatsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Plomba (muhr) — bu xavfsizlik vositasi bo`lib, u muayyan ob`ektning ochilmaganligini ko`rsatish uchun qo`yiladi. Plombalarning shakli, materiali, qo`yilgan usuli va ustidagi belgilar ularni o`ziga xos qiladi. Ular maxsus instrumentlar yordamida

20-May, 2025-yil

o‘rnatiladi va ularning yuzasida plomba bosuvchi muhrning izlari qoladi. Shu izlar orqali plombani o‘rnatgan shaxs yoki tashkilotni, shuningdek, plomba asl holatdaligini aniqlash mumkin.[3]

Trasologik ekspertizada plombalarni tahlil qilish usullari

Plombalarni identifikatsiya qilish quyidagi asosiy usullar orqali amalga oshiriladi:

Vizual va mikroskopik tekshiruv

Plomba sirtida qolgan muhr izlari mikroskop yordamida tahlil qilinadi. Har bir muhr o‘zining noyob belgilariga ega bo‘lgani sababli, bu izlar orqali u identifikatsiyalanadi. Mikroskop ostida:

Shubhali plomba namunasi bilan original muhrlangan plomba namunasi solishtiriladi. Bu holatda stereomikroskoplar yoki metallografik mikroskoplardan foydalaniladi. Solishtirishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

Raqamli mikroskoplar va 3D skanerlardan foydalanib, plomba yuzasining raqamli modeli olinadi. Bu usul an’anaviy usullarga nisbatan ancha aniqroq bo‘lib, kompyuter yordamida avtomatik solishtirish imkonini beradi.

“Iz” tushunchasi maxsus adabiyotlarda ilmiy asoslangan kategoriya sifatida o‘tgan asrning 30-50-yillaridan boshlab shakllangan. Ularda hodisa joyidan topilgan izlarning asosiy turlari ta’riflangan. XX asrning 60-80-yillarida kelib chiqishi turli xil izlar batafsilroq o‘rganilgani bilan ahamiyatli bo‘lib, kriminalist olimlar R.S.Belkin, I.F.Krilov, G.L.Granovskiy, Y.P.Goldavanskiy, Y.N.Zuyev, Y.G.Koruxov, N.P.Maylis, Y.P.Ishchenko, A.Y.Paliashvili, L.G.Edjubov va boshqalarining “iz” tushunchasiga, izlarning tasniflanishiga, mikrotrasologiyaga va noyob obyektlarni tadqiq etishga o‘z hissalarini qo‘sghanliklarini ko‘rish mumkin. Bu davrda trassologiyani rivojlantirishning turli yo‘nalishlari bo‘yicha anchagina nashrlar chiqqan, uning nazariy va amaliy ishlammalari kriminalistik bilimning ushbu tarmog‘ini ancha boyitgan. G.L.Granovskiy nazariy va prognostik yondashuvlar hamda ekspert va tergov amaliyoti muammolari va qiyinchiliklarini chuqur o‘rganishdan hosil bo‘lgan bilimlar majmuini yaratgan va umumiy trassologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan. G.L.Granovskiy o‘zining ikkita fundamental asari, ya’ni “Trassologiya asoslari. Umumiy qism” hamda “Trassologiya asoslari. Maxsus qism” kitoblari bilan trassologiyaning nazariy asoslarini har taraflama rivojlanirgan. Ushbu asarda ishlab chiqilgan izlar tasnifini hozirda barcha e’tirof etgan bo‘lib, obyektlarning qamrab olinishi, ularning obyektlarda aks etuvchi iz va belgilari bo‘yicha asosiy o‘rin tutadi.

Trassologiya kriminalistika fanining bo‘limi bo‘lib, iz hosil bo‘lishi jarayonining nazariy asoslari, ularni qoldirgan obyektlarning tashqi tuzilishi, izlarning hosil bo‘lish mexanizmlari, izlarni topish, hisobga olish va olib qo‘yish usul va vositalari, shuningdek jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlash maqsadida izlar tadqiqotining umumiy va xususiy usullarini o‘z ichiga oladi.

Iz qoldiradigan obyektlarning turiga qarab, izlarning to‘rtta asosiy guruhi ajratiladi:

1. Odam izlari (gomeoskopiya);
2. Hayvon izlari;

20-May, 2025-yil

3. Qurol, asbob va ishlab chiqarish mexanizmlarining izlari;
4. Transport vositalarining izlari.

Iz qoldiruvchi obyektlarga – poyabzal, transport vositasining g‘ildiragi, inson tishlari, buzish qurollari, ya’ni iz qabul qiluvchi bilan o‘zaro ta’sirlashish

Har bir muhr o‘ziga xosligi sababli yuqori aniqlikda identifikasiya qilish mumkin; Zamonaviy texnika vositalari (3D skanerlar, raqamli mikroskoplar) natijalarini tezlashtiradi; Plombaning o‘zgartirilgan yoki ochilgan holatini aniqlash imkoniyati mavjud.[4]

TAKLIFLAR:

Plomba muhrlarini davlat reyestrida raqamli katalogga kiritish.

Har bir plomba muhrining 3D modeli yaratilgan elektron bazani tashkil etish.

Ekspertlar uchun zamonaviy raqamli jihozlar bilan jihozlangan maxsus laboratoriylar tashkil etish.

Trasologik ekspertizalar jinoyat-tergov faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, u orqali plombalardagi izlarni tahlil qilish orqali muhim ma’lumotlar olinadi. Plombalarni identifikasiya qilish usullari har yili takomillashmoqda va ayniqsa raqamli texnologiyalar yordamida bu jarayon yanada aniq va ishonchli bo‘lib bormoqda. Shu boisdan plombalar bilan ishlash metodikasini chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri tahlil qilish bo‘yicha maxsus mutaxassislarni tayyorlash bugungi kun talabidir.

Trasologik ekspertizalarda plombalarning o‘rni va ulardan foydalanish imkoniyatlari nihoyatda katta. Ular nafaqat muhrlangan ob’ektlarning xavfsizligini baholashda, balki tergov jarayonida muhim dalil sifatida xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan ekspertiza metodlari plombalarni aniqlash va identifikasiya qilishda anqlik, tezlik va ishonchlilikni oshiradi. Shu boisdan, trasologik ekspertizalarni yanada takomillashtirish zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurashda dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) SH.M.Mirziyoyev “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.”- T: “O’zbekiston”. 2017-y.
- 2) 10 I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. - Toshkent “Ma’naviyat” 2008-y.;
- 3) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-apreldagi PQ-2898-sonli “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori.
- 4) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4125-sonli “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida ”gi Qarori.